

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Madmarova Gulchehra Qodirovna

Andijon davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimlarida bu kompetensiya pedagog tayyorgarligining bazaviy mezoniga aylangan. Shu jihatdan, o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini shakllantirishga yo'naltirilgan uzviy, bosqichli, zamonaviy va madaniyatga mos metodik tizimni joriy etishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga doir zamonaviy yondashuvlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tadqiqot, kompetensiya, faoliyat, ijodiy salohiyat, innovatsiya, pedagogik ijodkorlik, professional maqom.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНО- ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В образовательных системах развитых стран эта компетенция стала базовым критерием подготовки учителей. В этой связи актуальной проблемой остается внедрение целостной, поэтапной, современной и культурно-адаптированной методической системы, направленной на формирование профессионального и педагогического творчества учителей. В данной статье представлена информация о современных подходах к развитию профессионального и педагогического творчества будущих учителей.

Ключевые слова: Исследование, компетенция, деятельность, творческий потенциал, инновации, педагогическое творчество, профессиональный статус.

MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL- PEDAGOGICAL CREATIVITY IN FUTURE TEACHERS

Abstract: In the educational systems of developed countries, this competency has become a basic criterion for teacher training. In this regard, the implementation of a coherent, phased, modern and culturally appropriate methodological system aimed at the formation of professional and pedagogical creativity of teachers remains an urgent issue. This article provides information on modern approaches to the development of professional and pedagogical creativity in future teachers.

Keywords: Research, competency, activity, creative potential, innovation, pedagogical creativity, professional status.

KIRISH

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni, ya'ni an'anaviy "bilim berish" modelidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi paradigmaga o'tish, bugungi kunda maktab ta'limi tizimida ham, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash

jarayonida ham jadal kechmoqda. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda qator ziddiyatlar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlaridan biri – oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan o'quv faoliyatining mazmuni va real pedagogik amaliyotning talablari o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Amaliyot esa mutlaqo boshqa sifat, ko'nikma va faoliyat mexanizmlarini talab qiladi.

Shu bois, kelgusida pedagoglik faoliyatini bajaradigan talabalarning kasbiy ko'nikmalari innovatsion ta'lim muhiti sharoitida shakllanishi va shu muhitda o'rganilishi muhimdir. Ammo amaldagi o'quv topshiriqlari ko'pincha pedagogik maqsadlar bilan uzviy bog'lanmagani, ularning mazmuni real kasbiy vazifalarni aks ettirmagani sababli, talabalarning kasbiy-pedagogik hamda ijodiy salohiyatining to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – bu shaxsning o'zini anglash va ijodiy o'sish ehtiyojlarini qondira oladigan kasbiy faoliyatga tayyorlashdir. Zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlari shaxsning erkin rivojlanishi, o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi va ijtimoiy faol subyekt sifatida shakllanishini ta'minlashga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, kasbiy-pedagogik ta'limning maqsadi – o'qituvchini nafaqat bilimli mutaxassis sifatida, balki ijodiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, innovatsion tafakkurga ega shaxs sifatida tayyorlashdir. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan va subyekt-subyektli yondashuvni o'z ichiga oladi, bunda o'qituvchi va talaba o'zaro hamkorlik asosida ta'lim jarayonining teng huquqli ishtirokchilariga aylanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy va amaliy yondashuvlarning yangilanishi jamiyat taraqqiyotida yuzaga kelayotgan bir qator ichki qarama-qarshiliklar bilan izohlanadi. Eng avvalo, bu jamiyat ehtiyojlari, talablari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishni taqozo etmoqda. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga doir zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Chunki ta'lim sifatini oshirish, shaxsiy va kasbiy o'sishni ta'minlash, ijodkor pedagoglarni tayyorlash jamiyatning innovatsion rivojlanish omili sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sohasida axborotlashtirish, globallashtirish va texnologiyalashuv jarayonlarining jadallasuvi natijasida o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakl, metod va yondashuvlarini izlab topish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu holat o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammosi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonining intensivlashtirishini talab etadi.

Pedagogika fanlari doktori Gusarova Yelena Nikolayevnaning ta'kidlashicha, "bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashga zamonaviy yondashuvlar o'qituvchining ijodkorlik salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Tadqiqotlarda axborot-integrativ yondashuv alohida e'tibor markazida turadi. Ushbu yondashuv maxsus ta'limda axborot ta'minotini takomillashtirish, umumiy va kasbiy ta'lim integratsiyasini kuchaytirish, turli pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligini asoslab beradi".

Shuningdek, XXI asrda ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida bir qator yangi ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Jumladan,

- tizimli yondashuv;
- faoliyatga asoslangan yondashuv;
- madaniyatshunoslik yondashuvi;
- kontekstual yondashuv;
- integrativ-modulli yondashuv;
- dasturli-maqсадli yondashuv;
- sinergetik yondashuv;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- kreativ yondashuv.

METODOLOGIYA

Mazkur yondashuvlarni bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning zamonaviy metodologik asosi sifatida e'tirof etish mumkin. Ayniqsa, kreativ, integrativ va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar o'qituvchi shaxsining ichki salohiyatini ochish, pedagogik faoliyatda mustaqil, tashabbuskor va innovatsion qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodkor shaxsini shakllantirishda tizimli yondashuv eng istiqbolli metodologik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki aynan shu yondashuv orqali pedagogik faoliyatning ichki qonuniyatlari va o'zaro bog'liqliklarini aniqlash, ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash mexanizmlarini belgilash imkoniyati yaratiladi. Tizimli yondashuvning mohiyati bu pedagog va talaba o'rtasidagi hamkorlikni, o'zaro ijodiy muloqotni ta'minlash bilan birga, pedagoglarning o'zaro hamkorlikdagi ijodiy faoliyatini ham rag'batlantirishdir. Bunda ta'lim jarayoni bir butun tizim sifatida qaraladi, unda har bir ishtirokchi o'qituvchi, talaba va hamkasblar birgalikda yangilik yaratish, tajriba almashish va o'zaro o'sish jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib, u o'qituvchini reflektiv, hamkorlikka tayyor, innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, talabalarning ijodiy hamkorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar majmui o'quv jarayoniga evristik, tadqiqotga yo'naltirilgan va ijodiy xarakterdagi o'quv-pedagogik vazifalarni kiritishni talab etadi. Bu yondashuvda e'tibor, asosan, ta'lim jarayonining metodik jihatdan takomillashtirilishiga emas, balki talabaning ijodkor shaxs sifatida rivojlanishiga qaratiladi. Ya'ni, o'qituvchi faoliyati o'quvchini mustaqil izlanishga, yangi g'oyalarni ilgari surishga, yangicha yechimlar topishga yo'naltiriladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) zamonaviy maktab ta'limini modernizatsiya qilish jarayonini ta'lim tizimining umumiy rivojlanishidagi muhim bosqich sifatida ijobiy baholaydi. OECD tadqiqotlarida ta'limdagi yangilanishlar sharoitida o'qituvchi kasbining professional maqomi tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani ta'kidlanadi. Bu, o'z navbatida, jamiyat tomonidan o'qituvchilik faoliyatining e'tirof etilishi, shuningdek, ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatish bilan izohlanadi. OECD hisobotlari va ilmiy tadqiqotlari natijalari ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi yetakchiligining hal qiluvchi rolini, shuningdek, kasbiy rivojlanish hamda o'quvchilarning yutuqlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhitni yaratish zarurligini tasdiqlaydi.

“XXI asr o‘quvchilari uchun maktablar (Schools for 21st-Century Learner)” tahliliga ko‘ra, “muvaffaqiyatli ta‘lim tizimlari barcha darajalarda –o‘qituvchidan tortib tizim o‘zgarishlarga qadar yetakchilikni qo‘llab-quvvatlaydi, innovatsion fikrlash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini ta‘lim amaliyotining ajralmas qismi sifatida rivojlantiradi”.

Mazkur yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish uchun muhim nazariy asos yaratadi, chunki u o‘qituvchini nafaqat bilim beruvchi, balki o‘z faoliyatini boshqaruvchi, yangilik yaratuvchi va ta‘limdagi ijobiy o‘zgarishlarning tashabbuskori sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi masalasi TALIS (Teaching and Learning International Survey) dasturi doirasida alohida ilmiy e‘tibor markazida turadi. Ushbu xalqaro tadqiqot dasturi o‘qituvchi yetakchiligini shakllantirishning samarali yondashuvlarini, ularning maktabdagi psixologik muhit va ta‘lim sifati natijalariga ta‘sirini tahlil qiladi.

TALIS tashabbuslari ta‘lim muassasalarida kasbiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi professional hamjamiyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday hamjamiyatlar o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish, innovatsion pedagogik amaliyotlarni joriy etish hamda o‘zaro reflektiv o‘rganish madaniyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Kasbiy maqomi yuqori bo‘lgan o‘qituvchi ta‘lim jarayonida yetakchi subyekt sifatida e‘tirof etiladi. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llay oladi, ta‘limdagi o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashadi hamda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va o‘zini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

O‘qituvchining bunday professional maqomi uning ichki motivatsiyasini oshiradi, mehnat natijalari uchun mas‘uliyat hissini kuchaytiradi va ta‘lim muassasasida ishonch, hamkorlik hamda ijodiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bois TALIS dasturida ilgari surilgan konseptual yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvlar o‘qituvchi

shaxsining ijodkor, innovatsion va reflektiv professional sifatida kamol topishiga imkon yaratadi.

A.Kraft o'z ilmiy ishlarida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi an'anaviy, bir xil shakldagi formal kurslar bilan chegaralanmasligi kerakligini ta'kidlaydi. U o'qituvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda o'z kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beruvchi turli metodlarni taklif etadi. Mustaqil ta'lim shakllari o'qituvchiga o'z sohasi bo'yicha bilimni chuqurlashtirish, yangi metodik usullarni o'rganish va ularni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik tadqiqot faoliyati o'qituvchining tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va o'z faoliyatini reflektiv baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

R.Kullen esa an'anaviy kasbiy rivojlanish shakllarining cheklanganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qisqa muddatli yoki tashqi ekspertlar tomonidan tashkil etiladigan seminarlar, kurslar odatda boshqalar tomonidan yaratilgan tayyor bilimlarni o'qituvchilarga yetkazish bilan cheklanadi. Bunday dasturlar o'qituvchilarga kundalik ish jarayonidan chiqish, hamkasblar bilan tarmoqda muloqot qilish va yangi g'oyalarni muhokama etish imkonini berishi bilan foydali bo'lsa-da, ularning asosiy kamchiligi – o'rganilgan bilim va ko'nikmalar ko'pincha o'qituvchining real amaliy sharoiti va ehtiyojlariga mos kelmasligidadir.

D.I.Pozdneva o'qituvchining kasbiy rivojlanishini uzluksiz, dinamik jarayon sifatida talqin etadi. Uning fikricha, bu jarayon kasbiy kompetensiyalar tarkibi va darajasiga nisbatan tashqi talablarning o'zgarishi, shuningdek, shaxsiy va kasbiy fazilatlar doirasining kengayib borishini aks ettiradi. Olimaning fikricha, o'qituvchining pedagogik faoliyatini rivojlantirishning uchta asosiy yo'nalishi mavjud:

1. Kasbiy mobillikni oshirish – o'qituvchining yangi sharoitlarga tez moslasha olish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish va o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash qobiliyati;
2. Ochiq professionallik tamoyillari – tajriba almashish, hamkorlikda o'rganish va o'zaro o'sish muhitini yaratish;
3. Jamoaviy kasbiy faoliyatda dialogni rag'batlantirish – o'qituvchilar o'rtasida o'zaro tushunish va ijodiy muloqotni rivojlantirish.

Pozdneva shuningdek, zamonaviy o'qituvchi tez o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslasha oladigan, yangiliklarni tez o'zlashtiradigan va shaxsiy hamda kasbiy o'sishga tayyor bo'lgan mutaxassis bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning muhim sharti bo'lib, u o'qituvchini moslashuvchan, innovatsion fikrlovchi va refleksiv professional sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Zamonaviy ta'lim muhiti o'qituvchidan yuqori malaka va keng kompetensiyalarni egallashni, tez o'zgarayotgan sharoitlarga moslasha olishni, zamonaviy texnologiyalarni samarali joriy etishni hamda o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olishni talab etadi. Shu sababli, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi bugungi kunda ta'lim siyosati va amaliyotining strategik jihatdan muhim, ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Kasbiy rivojlanishning turli yondashuvlari – shaxsiy va institutsional omillarni hisobga olgan holda – o'qituvchilarga zamonaviy ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Bugungi o'qituvchi nafaqat o'z mutaxassislik sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, jamoaviy va fanlararo hamkorlikda ishlash kabi ko'p qirrali kompetensiyalarni rivojlantirishi zarur. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy pedagogning kasbiy rivojlanishining metodologik asosi sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusamiyev D.A. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimi: ped.fan.dok(DSc). Diss.... – Namangan.: 2025. – 262 b.
2. Brookfield, S.The Skillful Teacher: On Technique, Trust, and Responsiveness in the Classroom [Electronic resource] / S.Brookfield. Wiley, 2020.
3. Brumfit, CH. Communicative Methodology and Innovative Teacher Training / CH. Brumfit // Applied Linguistics Journal. – 2005. – Vol. 26. – № 1. – P. 45–62.
4. Competency-Based Education Network (C-BEN). Defining and Scaling Competency-Based Education: Insights and Practic-es. 2023. [Electronic resource].
5. Craft A.Continuing professional development /A.Craft.—London: Routledge and Falmer, 2000. DOI: 10.4324/9780203420041

6. Cullen R. Transfer of training: Assessing the impact of INSET in Tanzania [Electronic resource] / R. Cullen; in D. Hayes (Ed.) // In-service Teacher Development: International Perspectives. London: Prentice Hall, P. 20–36. Access mode: https://www.researchgate.net/publication/320190755_INSET_Innovation_and_Change_An_Introduction.
7. Dip, C. Z. Pedagogical Design and Creative Thinking in Higher Education / C. Z. Dip, M. A. Santos // International Journal of Creativity and Innovation in Education. – 2021. – Vol. 5. – № 3. – P. 112–129
8. European Commission. Developing Key Competencies for Lifelong Learning: European Guidelines for Teachers and Educators. 2021. [Electronic resource]. Access mode: https://education.ec.europa.eu/sites/default/files/document-library-docs/factsheet-key-competences-lifelong-learning_en.pdf